"O'zmetkombinat" Ajda marketing faoliyatini takomillashtirish yo'llari	1091
Musayeva Shoira Azimovna	
Подходы к государственной поддержке сельскохозяйственных предприятий с учетом принципов инновационного управления	1096
Шаниязова Замира, Шнибаев Ислам	
Mamlakatda xalqaro turizmni samarali rivojlantirishda turizm siyosatini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari	1101
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich	
Raqamli moliya va to'lov tizimlari	1105
Maqsud Rustamov, Nurijahon Valiqulova	
Iqtisodiy tahlilda ishlab chiqarish hajmini prognozlash masalalari	1110
Qlichev Baxtiyor Pardayevich	
Kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri: Toshkent viloyati tajribasi	1116
Ajamilova Nigora Asametdinovna	
To'qimachilik korxonalarida xomashyo ta'minoti tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	1121
Umarxodjayeva Arafatxon Muzaffar qizi	
Kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik masalalarini boshqarish masalalari	1126
Jo'raqulova Muhlisa Jahongir qizi	
Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini soliq nazorati mexanizmi asosida tartibga solish masalalari	1131
Bozorov Anvar Omanovich	
Tadbirkorlik subyektlarining eksport imkoniyatlarini oshirish masalalari	1139
Umarova Munira Muxitdinovna	



O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmining holati	1143
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	
Surxondaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....	1148
Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning dolzarb masalalari.....	1155
Axunova Ma'rifat Xakimovna	
Oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi	1159
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda ta'lim va malaka oshirishning roli.....	1166
Madalievna Nodira Miradilovna	
Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligining amaldagi holatini kompleks taqqoslama tahlili	1169
Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li	
Xalqaro mehnat migratsiyasi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: samaradorlikni solishtirish	1174
Sultanov Anvar Abdullaevich	
O'zbekiston soliq tizimida hududlararo soliq salohiyatini boshqarish	1180
Aipova Iroda Ikromovna	
Tijorat banklarida komplaens auditni tashkil etish va o'tkazishning uslubiy asoslari.....	1184
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
Scientific approach to the formation of a sustainable development strategy for industrial enterprises in the digital economy.....	1190
Maxsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni.....	1194
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini statistik va ekonometrik tahlil qilish (Andijon viloyati misolida)	1206
Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li	
Перспективы инвесторов в осуществлении инвестиционного процесса	1212
Муртазаев Ардашер Зафар угли	
Transport korxonalarida ishchi xodimlarni barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash boshqaruvini takomillashtirish	1216
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
O'zbekiston Respublikasi yengil sanoat tashkilotlarida investitsiya loyihalarni ishlab chiqish va samaradorligini oshirish.....	1221
Xurramova Madina Mansur qizi	
Fuzzy integrals in economics	1228
Aymuratov Islam Kamalatdinovich	
O'zbekistonda ipoteka kreditlari bozorining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari	1233
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
Совершенствование денежно-кредитной политики центрального банка в условиях цифровой экономики.....	1238
Бердиназаров Зафар Улашович, Исаев Атабек Джурабаевич	
The role of digital assets in international finance and their impact on the global economy	1248
Juraeva Ra'no Abdullaevna, Murodaliyev Shahroz Obidjonovich	
Diversification of financial resources in commercial banks and their innovative management methods in digital transformation	1255
Xodjayeva Jeyrona Ravshonbek qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili	1262
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari	1268
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions.....	1283
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	



Kredit portfelini tahlil qilish asosida tijorat banklari faoliyatini optimallashtirish yo'llari	1289
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
Agrosanoat klasterlarida xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olishni rivojlantirish	1295
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	



AGROSANOAT KLASSTERLARIDA XARAJATLARNI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBGA OLISHNI RIVOJLANTRISH

Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich

TDIU "Buxgalteriya hisobi" kafedrası dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi
ORCID: 0009-0009-0163-7699

Annotatsiya: Mazkur maqolada agrosanoat klasterlarida xarajatlar hisobining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning uslubiy jihatlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olish masalalari tadqiq qilingan. Shu bilan birga, agrosanoat klasterlarida xarajatlarni samarali boshqarish maqsadida ularning yuzaga kelish joylari, qisqa muddatli, o'rta muddatli hamda uzoq muddatli istiqbollari va mahsulot tannarxida hisobga olish jarayonining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida uslubiy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: klaster, xarajatlar, xarajatlarni boshqarish, xarajatlarning yuzaga kelish joylari, tannarx, xarajatlarni tan olish.

Abstract: This article explores the specific features of cost accounting in agro-industrial clusters, as well as methodological issues related to their recognition in financial statements based on International Financial Reporting Standards (IFRS). Particular attention is given to effective cost management by identifying cost centers, and assessing short-term, medium-term, and long-term prospects. The study also examines methodological aspects of recognizing costs in product cost pricing in accordance with IFRS requirements.

Key words: cluster, costs, cost management, cost centers, cost price, cost recognition.

Аннотация: В данной статье исследованы особенности учёта затрат в агропромышленных кластерах, а также методологические вопросы их отражения в финансовой отчётности на основе международных стандартов. Особое внимание уделено эффективному управлению затратами с учётом мест их возникновения, а также краткосрочной, среднесрочной и долгосрочной перспектив. Кроме того, рассмотрены методологические аспекты признания затрат в себестоимости продукции в соответствии с международными стандартами финансовой отчётности.

Ключевые слова: кластер, затраты, управление затратами, места возникновения затрат, себестоимость, признание затрат.

KIRISH

Bugungi kunda sanoat sohasini yanada rivojlantirish mazkur yo'nalishda klasterlar tizimini shakllantirish, ularning huquqiy maqomini belgilash hamda tarmoq korxonalari integratsiyasini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday integratsiyalashgan tarmoq korxonalari faoliyatini agrosanoat klasterlari orqali birlashtirish hamda ularning faoliyatini tartibga solish tarmoq rivoji uchun dasturiy amal bo'lib xizmat qiladi.

Sanoat – iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish faoliyatini olib borayotgan subyektlarda, shu jumladan agrosanoat klasterlarida ham, hozirgi kundagi eng ustuvor vazifalardan biri – foydani maksimallashtirish maqsadida xarajatlarni eng minimal holatga keltirishdir. Agrosanoat klasterlari faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, eng avvalo, sarflangan mablag'larni samarali boshqarish, ularni nazorat qilish hamda hisobga olishni xalqaro standartlar asosida tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Bunday vaziyatda eng to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligida hosildorlikni keskin oshirish hisobiga mahsulot tannarxini kamaytirish, chuqur qayta ishlashga va qo'shilgan qiymat yaratishga ko'proq investitsiyalar jalb etib, eksportni ko'paytirishdan iboratdir. Bugungi kunning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri ham aynan shudir. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri – "barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" [1] tamoyiliga asoslangan holda "sanoatning 'drayver' sohalari rivojlantirish, hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, to'qimachilikda ip-kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish, yuqori sifatli matoga bo'lgan talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun'iy va aralash tola



ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish" borasidagi tizimli islohotlar mazkur sohalarning rivojlanishi uchun dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu kabi muammolarni hal etishda agrosanoat klasterlarida ishlab chiqarish xarajatlarini zamonaviy va samarali usullar asosida boshqarish, ularning hisobini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Xarajatlarni boshqarish va nazorat qilishda ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash, to'g'ri taqsimlash, maqsadini belgilash, yo'nalishini aniq ko'rsatish, hisobga olish va hisobdan chiqarish, ya'ni mahsulot tannarxiga to'g'ri taqsimlash zarur hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agrosanoat klasterlari faoliyatida xarajatlarni hisobga olish va ularni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq tarzda yuritish iqtisodiy shaffoflik, investitsion jozibadorlik va hisobotlarning solishtiriluvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, agroklastarlarda hisob va tahlil tizimining standartlashtirilishi orqali boshqaruv qarorlarining sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

R. E. Needles va M. Powers tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalarda moliyaviy hisobda aniqlik va ochiqlik tamoyillarining ishlab chiqarish tarmoqlarida qanday qo'llanilishi chuqur o'rganilgan. Ular moliyaviy natijalarni aks ettirishda xarajatlarni aniq tasniflash, ularni daromadlar bilan moslashtirish va amortizatsiya siyosatini standart asosida yuritishni zarur deb hisoblaydi.

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC) va IFRS Foundation tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda, ayniqsa qishloq xo'jaligi va qayta ishlash tarmoqlariga doir MSFO 41 (Qishloq xo'jaligi) standarti doirasida biologik aktivlar, ularning o'sish bosqichlari, amortizatsiyasi va bozordagi qiymat o'zgarishlari asosiy e'tiborga olingan.

O'zbekistonlik iqtisodchilar M. Sobirov va S. Axmedov o'z tadqiqotlarida agrosanoat klasterlarida moliyaviy hisobot standartlariga o'tishning zarurati, ayniqsa investitsiyalarni jalb etishda MSFOning afzalliklarini ko'rsatib bergan. Ular klaster doirasida kooperatsiya asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini aniqlash, zaxiralarni baholash va transmilliy hamkorlikda moliyaviy axborotning aniq yuritilishi bo'yicha uslubiy yondashuvlarni taklif qilgan.

Shuningdek, M. Epstein va E. Jermakowiczning ilmiy ishlari korporativ ijtimoiy javobgarlik va moliyaviy hisob integratsiyasining, ayniqsa agrosanoat klasterlarida joriy etilishi orqali nafaqat moliyaviy shaffoflik, balki barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish mumkinligini isbotlaydi.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, agrosanoat klasterlarida xarajatlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida tashkil etish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlarni to'plash, kuzatish hamda tizimli yondashuv asosida xarajatlarni boshqarish tushunchasi o'rganildi. Ushbu jarayonda xarajatlarni samarali boshqarish konsepsiyasi va uning rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida tegishli usullar qo'llanildi. Shuningdek, xarajatlar hisobini samarali tashkil etish uchun qiyosiy va tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar agrosanoat klasterlari faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning turli sohalar bilan integratsiyasini ta'minlashda muhim dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda. Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan qator normativ-huquqiy hujjatlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog' va tokzorlarni barpo qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-151-son¹ Farmoni, 2023-yil 12-dekabrdagi "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-205-son² Farmoni, shuningdek 2021-yil 16-noyabrdagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-14-son³ Farmoni va soha rivoji uchun qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar ushbu tizimning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilash, faoliyat yo'nalishlarini aniqlash, hamda moliyaviy faoliyatini tartibga solishda muhim huquqiy zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-7124200>

² <https://lex.uz/docs/-6692968>

³ <https://lex.uz/ru/docs/-5731033>



Shu bilan birga, alohida e'tibor qaratiladigan jihatlardan biri – mavjud resurslardan oqilona foydalanish va ularning yo'nalishlarini to'g'ri belgilashdir. Bu esa agrosanoat klasterlarida xarajatlar hisobini yuritishni alohida ahamiyatga ega bo'lgan masalaga aylantiradi.

Xorijiy amaliyotda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish – buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi hisoblanadi. U korxona moliyaviy natijalarini optimallashtirish maqsadida tashkilot faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, boshqarish va baholash imkonini beradi. Bizning amaliyotda ham ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish buxgalteriya tizimining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.


Buxgalteriya hisobining xalqaro amaliyotida joriy davr xarajatlari ularning xarakteriga ko'ra tannarx (expenses) yoki zararlar (losses) sifatida tasniflanadi. Bu yondashuv joriy va kelgusidagi xarajat tushunchalarini farqlash imkonini beradi.

“Xarajatlar” atamasi MHXSda kelgusida olinadigan daromadlarni sarflash (expenditure) doirasida qo'llaniladi. Shu nuqtayi nazardan, xarajatlar – resurslarni sarflash va davr xarajatlarini tan olish o'rtasidagi oraliq kategoriya hisoblanadi. Ular resurslardan foydalanish qiymatini ifodalaydi. Moliyaviy hisobotda ular xarajatlar yoki zararlar sifatida tan olinmaguncha, kompaniya aktivlari tarkibida aks ettiriladi.

MHXSda xarajatlar tushunchasi hisobot davrida iqtisodiy foydaning pasayishi sifatida talqin etiladi. Bu pasayish aktivlar qiymatining kamayishi yoki yo'qotilishi, shuningdek kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning ko'payishi orqali ifodalanadi.

Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, ishlab chiqarish xarajatlarini guruhlash va taqsimlash jarayoni ishlab chiqarish va sotuv bosqichlarida foyda shakllanishini tezkor nazorat qilish imkonini beradi. Shu sababli, xarajatlar minimal miqdordagi modda (maqola)lar bo'yicha guruhlanadi.

Mahsulotning ayrim turlari o'rtasida xarajatlarni to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor qaratiladi. Ko'p hollarda taqsimlanmagan xarajatlar umumiy moliyaviy natijaga – foyda bilan bog'liq bo'ladi. Quyidagi 1-rasmda tannarxni tashkil etuvchi ishlab chiqarish xarajatlarining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moddalari tasnifi keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. MHXSda ishlab chiqarish tannarxini hisoblash moddalari.

Keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tannarx tarkibini tashkil etuvchi xarajat moddalari uch guruhga ajratilib hisobga olinadi. Biroq amaliyotda esa “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi [2] Nizomga muvofiq, xarajat moddalari quyidagi 1-jadvalda keltirilganidek besh guruhga tasniflanadi (1-jadval).

1-jadval. Ishlab chiqarish xarajatlari moddalarining qiyosiy tasnifi.

№	Xarajat elementlari	
	54-sonli Nizomga muvofiq	MHXSga muvofiq
1.	Moddiy xarajatlar	IAS-2 “Zaxiralar”
2.	Mehnatga haq to'lash xarajatlari	IAS-19 “Xodimlarning daromadlari”
3.	Ijtimoiy soliq xarajatlari	IAS-19 “Xodimlarning daromadlari «
4.	Amortizatsiya xarajatlari	IAS-16 “Asosiy vositalar”, IAS-38 “Nomoddiy aktivlar”
5.	Boshqalar ishlab chiqarish xarajatlari	IFRS-16 “Ijara”, IAS 23 “Qarzlar bo'yicha xarajatlar»

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, buxgalteriya hisobida xarajatlar va ularni hisobga olishning yagona standarti mavjud emas. Har bir xarajat elementi muayyan xalqaro standartda aks etadi. Xarajatlarni hisobga olish bo'yicha ba'zi talablar 40-sonli IAS “Investitsion mulk” va 9-sonli IFRS “Moliyaviy instrumentlar” singari standartlarda bayon etilgan. Bunga sabab, moliyaviy hisobotning ushbu elementlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligidir.



Xarajatlarning alohida elementlarini o'rganar ekanmiz, shuni ta'kidlash lozimki, 16-sonli IAS talablariga ko'ra, amortizatsiya xarajatlari aktivning qoldiq qiymatini hisobga olmagan holda, uning haqiqiy qiymati yoki haqiqiy qiymat o'rnini bosuvchi boshqa baholangan qiymati asosida tan olinadi.

19-sonli IASning 11-bandiga muvofiq, agar xodim hisobot davrida korxonaga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, korxona ushbu xizmatlar evaziga to'lanadigan ishchilarga taqdim etiluvchi qisqa muddatli imtiyozlar miqdorini quyidagi shaklda tan olishi lozim:

- hisoblangan majburiyatlar (ya'ni xarajatlar), ilgari to'langan summa saqlab qolingan taqdirda. Agar ilgari to'langan summa to'lovning taqsimlanmagan miqdoridan oshsa, tashkilot bu ortiqcha miqdorni aktiv sifatida tan olishi lozim (avans xarajatlari), masalan, kelajakdagi to'lovlarni kamaytirish yoki qaytarib berishga olib keluvchi miqdorda;

- bundan boshqa holatlar, ya'ni boshqa standart talab qiluvchi yoki aktiv qiymatiga kiritishga ruxsat beruvchi badallar bundan mustasno (masalan, 2-sonli IAS va 16-sonli IAS).

Xodimning mehnat faoliyati tugaganidan keyin beriladigan mukofot miqdori korxona (ba'zida xodimning o'zi ham) tomonidan sug'urta rejasiga to'langan badallar yoki sug'urta kompaniyasiga o'tkazilgan mablag'lar orqali shakllanadi. Ushbu summalar investitsiya daromadlari bilan birga belgilanadi.

Moddiy xarajatlarni hisobga olish kontekstida 2-sonli IASning 10-bandiga ko'ra, tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga quyidagilar kiritilishi kerak:

- sotib olish bilan bog'liq xarajatlar;
- qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlar;
- zaxiralarning hozirgi joylashuvi va holatini ta'minlash uchun qilingan boshqa zarur xarajatlar.

Mazkur standart, shuningdek, ishlab chiqarish tannarxini hisobga olish va mahsulot tannarxini aniqlash qoidalarini ham belgilab beradi. Ushbu hujjatda ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olish bilan bog'liq asosiy tamoyillar bayon etilib, ular hisobot davri uchun foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi hisoblash usullarini tanlash tartibini o'z ichiga oladi. Standart quyidagilarga oid tavsiyalarni ham taqdim etadi:

- bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarni taqsimlash;
- kompleks ishlab chiqarish xizmatlarini taqsimlash;
- balansda kapitallashtiriladigan va kapitallashtirilmaydigan xarajatlar o'rtasidagi farqni aniq belgilash.

O.D. Kaverinaning fikriga ko'ra, ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olish nuqtayi nazaridan 2-sonli IAS ikki muhim xususiyatga ega.

Birinchidan, ushbu standartning 10-bandida buxgalteriya hisobi uchun an'anaviy xarajatlarni hisobga olish usuli – absorption costing (to'liq qamrovli xarajatlar usuli) tartibga solinadi. Bu usulda ishlab chiqarish xarajatlari o'zgaruvchan hamda doimiy xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bu holat "direkt-kosting" usulidan farqlanadi. Moliyaviy hisobot tuzishda faqat to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni hisoblashga ruxsat berilmaydi. Ushbu usul xorijiy kompaniyalarda faqat boshqaruv hisobotlarini tayyorlashda qo'llaniladi.

2-sonli IASga muvofiq, xususan, 14-bandda normativ hisob buxgalteriya hisobida ham qo'llaniladi. Ushbu standart ortiqcha xarajatlarni takroriy xarajatlarga kiritishni, boshqacha aytganda, hisobot davrida foyda kamayishiga to'liq kiritilishini asoslaydi. Xomashyo, ish haqi va shunga o'xshash elementlarning ortiqcha yo'qotishlari aktivlar balansida aks ettirilgan zaxiralar tarkibiga kiritilmasligi lozim. Normativ usul material zaxiralari, tugallanmagan ishlar va tayyor mahsulotlarni baholashda qo'llash uchun ruxsat etiladi.

Ikkinchidan, 2-sonli IASning 10-bandida ishlab chiqarish tannarxiga quyidagi uchta xarajat guruhi kiritilishi belgilangan:

- ishlab chiqarishdagi o'zgaruvchan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar;
- ishlab chiqarishdagi o'zgaruvchan bilvosita xarajatlar;
- ishlab chiqarishdagi doimiy bilvosita xarajatlar.

16-sonli IASga binoan, tannarx – pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari summasi yoki aktivni sotib olish vaqtida berilgan boshqa to'lovlarning adolatli qiymati, yoki qurilish davrida (yoki agar qo'llash mumkin bo'lsa, boshqa MHXS (IFRS) talablariga muvofiq) tan olingan dastlabki qiymatdir.

Quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda, asosiy vosita obyektining tannarxi aktiv sifatida tan olinadi:

- kompaniyaning ushbu obyekt bilan bog'liq kelajakda iqtisodiy foyda olish ehtimoli mavjud bo'lsa;
- ushbu obyektning tannarxini ishonchli baholash mumkin bo'lsa.

Tan olingan asosiy vosita obyekti, mahalliy amaliyotda kuzatilganidek, foydalanish muddati davomida muntazam ravishda amortizatsiya qilinadi. Agar aktiv qiymatining tarkibiy qismi umumiy qiymatga nisbatan sezilarli bo'lsa, bu qism alohida amortizatsiya qilinadi.

Har bir davr uchun amortizatsiya xarajatlari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda xarajat sifatida tan olinadi. Xalqaro amaliyotda korxonalar amortizatsiyani hisoblash uchun o'zlariga qulay usulni tanlash huquqiga ega bo'lib, bu usul mazkur aktivdan kelajakda olinadigan iqtisodiy foyda modelini aniqroq aks ettirishi kerak.



Bugungi kunda quyidagi amortizatsiya hisoblash usullari qo'llaniladi:

- to'g'ri chiziqli usul;
- qoldiqni kamaytirish usuli;
- mahsulot ishlab chiqarish birliklari usuli.

"Tashkilot xarajatlari" va MHXSga muvofiq qo'shimcha ma'lumotlarni yoritish yondashuvlari o'zaro mos keladi. Biroq, agar ishbilarmonlik muomalasi amaliyoti yoki me'yoriy hujjatlarning tegishli talablari mavjud bo'lsa va ular asosida shartnoma tuzilgan bo'lsa, xarajatlar buxgalteriya hisobida tan olinadi.

Boshqacha aytganda, MHXSdan farqli o'laroq, xarajatlar faqat buxgalterning iqtisodiy foyda kamayishiga oid professional xulosasiga asoslanib emas, balki u albatta hujjat bilan rasmiy ravishda tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Natijada, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) bo'yicha moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda sezilarli tafovutlar vujudga keladi. MHXS va BHMSGa muvofiq xarajatlarni hisobga olishning qiyosiy tavsiflari 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. MHXS vaBHMS standartlarida xarajatlarni tan olishning qiyosiy tahlili.

BHMS	MHXS
Xarajatlar muayyan shartnoma, qonunchilik talablari, ishbilarmonlik muomalasi odatlari bo'yicha amalga oshiriladi	Ushbu shart mavjud emas
Xarajat miqdorini aniqlash mumkin	Xarajat miqdorini ishonchli o'lchash mumkin
Amaliyot natijasida iqtisodiy foyda kamayishiga ishonch mavjud	Kelajakda aktivning pasayishi yoki majburiyatning ko'payishi bilan bog'liq iqtisodiy foyda kamayadi
Xarajatlar hisob-kitob asosida tan olinadi	Xarajatlar hisob-kitob asosida tan olinadi
Xarajatlar hujjat bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak	Xo'jalik operatsiyalarining aks etishi boshlang'ich hujjatlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi bilan bog'liq emas

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xarajatlar tarkibi bo'yicha moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda yoki moliyaviy hisobotning izohlarida qo'shimcha ma'lumotlarni yoritishni talab etadi. Bu, avvalo, xarajatlarni taqsimlashga asoslangan tasnifdan foydalanilganda, xarajatlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar kelajakdagi pul oqimlarini prognozlashda foydali bo'lishi bilan bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xarajatlarning mohiyati va hajmi bo'yicha ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ularni yoritishni ko'zda tutadi. Xususan, quyidagi ma'lumotlarni yoritish mumkin:

- tovar-moddiy zaxiralar qiymatini sotuv bo'yicha sof qiymatgacha yoki asosiy vositalarni qoplab beriluvchi qiymatgacha hisobdan chiqarish, hamda bunday hisobdan chiqarishning qayta tan olinishi;
- asosiy vosita obyektlarini tasarruf etish;
- investitsiyalarning chiqib ketishi;
- sud jarayonlariga oid da'volarni hal etish.

Shunday qilib, MHXSni joriy etish korxonalarda xarajatlarni samarali boshqarish, ularning hisobini mahsulot tannaxida to'g'ri aks ettirish bilan birga, boshqaruvni axborot bilan ta'minlash tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Epstein M. J., Jermakowicz E. K. IFRS: Policies and Procedures. – New Jersey: Wiley, 2010. – 384 p.
2. Deloitte. Application of IFRS in Agricultural Enterprises. – London: Deloitte Insights, 2019.
3. Ernst & Young. Guide to IFRS for Agricultural Companies. – Frankfurt: EY Global, 2020.
4. PMG. Financial Reporting in the Agricultural Sector. – Amsterdam: KPMG Publishing, 2021.
5. S. J. Karimova. Agroklastarlarda xarajatlarni hisobga olishda zamonaviy yondashuvlar. – T.: Fan va taraqqiyot, 2023. – 154 b.
6. R. E. Needles, M. Powers. Financial Accounting. – Boston: Cengage Learning, 2013. – 704 p.
7. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standard 41 – Agriculture. – London: IFRS Foundation, 2022.
8. IFAC. Handbook of International Public Sector Accounting Standards. – New York: International Federation of Accountants, 2021.
9. Toshpo'latov A.Sh. Improving the Cost Management Mechanism in Management Accounting. Academic Journal of Digital Economics and Stability. Spain. Volume 15, 2022, ISSN 2697-2212. P. 176-183. <https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/453/436>
10. Klaster va manfaatdorlik – O'zbekiston qishloq xo'jaligining kelajagi. old.gov.uz/oz/news/view/28847



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>